

Barkamol shaxsni tarbiyalashda pedagoglarning axloqiy sifatlari allomalar qarashlari nigohida

Azamat Ahmadali o‘g‘li Boydavlatov
 azamatboydavlatov77@gmail.com
 Dilnoza Ismoiljon qizi Mahkamova
 Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada allomalarning tarbiyachi pedagog qanday fazilatlarga ega bo‘lmog‘i lozimligi borasidagi qarashlari, shuningdek har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashda o‘qituvchilarning mas’uliyatidagi vazifalari xususida so‘z boradi. Qolaversa, ushbu fikrlarning tahlili yuzasidan mualliflarning obyektiv xulosasi ham aks etgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, pedagog, fikr tarbiyasi, bola, kamtarlik, ezgu g‘oyalilik, axloq, rostgo‘ylik

Moral qualities of educators in the upbringing of a harmonious personality from the point of view of scientists

Azamat Ahmadali oglu Boydavlatov
 azamatboydavlatov77@gmail.com
 Dilnoza Ismoiljon kizi Mahkamova
 Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article discusses the views of scholars on what qualities an educational teacher should have, as well as the responsibilities of teachers in raising a well-rounded individual. In addition, the authors' objective conclusion on the analysis of these views is also reflected.

Keywords: upbringing, pedagogue, education of thought, child, humility, noble idealism, morality, honesty

KIRISH

Tarbiya - ijtimoiy tarixiy tajriba asosida, shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Har qaysi davrda bola tarbiyasi nafaqat pedagoglarning, balki butun insoniyatning eng muhim masalalaridan biri sifatida e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda ham bu masala yuzasidan qator tadqiqotchilar o‘z tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Bunda asosiy e’tibor yoshlarni yuksak ma’naviyatli, axloqli har tomonlama taraqqiy etgan

komil inson qiyofasida tarbiyalashning aniq usullarini va mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bolalarni komil inson etib tarbiyalashda asosiy mas'uliyat pedagoglar zimmasiga yuklanishini inobatga olib, ushbu maqolamizda aynan shu mavzuga qo'l urmoqlikni ixtiyor etdik. Bunda, asosiy yo'naliш sifatida allomalarining bola tarbiyasida pedagoglarning ahamiyati haqidagi qarashlarini pedagogik tahlil etishni belgilab oldik va shu asosda o'qituvchilarning ushbu mas'uliyatli ishdagi roli xususida to'xtalib o'tdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bola tarbiyasi har doim dolzarb mavzulardan biri hisoblanib, ilmiy soha vakillari tomonidan bu bo'yicha qator maqolalar, tezislар nashr ettirilmoqda. Ko'zlangan asosiy maqsad tarbiyanuvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdir. Ushbu tadqiqot davomida O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, H.Homidovning "Pedagogika tarixi", K.Hoshimovning "O'zbek pedagogikasi analogiyasi", A.Zunnunovning "Pedagogika tarixi", Kaykovusning "Qobusnoma" asari, shuningdek yana bir qator ilmiy maqolalarga bevosita murojaat qilindi.

Tadqiqot davomida ilmiy, nazariy, uslubiy adabiyotlar, xorij va o'zbek olimlarining qator ilmiy maqolalari, tezislari va adabiyotlarini nazariy tahlili va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, qiyosiy-pedagogik tahlil va suhbat asosida malakali soha vakillari bilan fikr almashish kabi metodlardan foydalanilgan.

NATIJALAR

Tarbiya amaliyoti - bu tarbiyanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi o'zi tomonidan faollik ko'rsatilishini taqazo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi. Chunki, u ijtimoiy tarbiyaning umumiyligi maqsadlari, mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshadigan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakl, metod va vazifalarini asosli ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiya jarayoniga tadbiq etadi. Shunga ko'ra quyida olimlarimizning ayrim fikrlariga to'xtalib o'tamizki, bundan murod pedagoglarni o'z faoliyati jarayonida e'tibor berishi lozim bo'lgan tarbiyaning asosiy aspektlari xususidagi bilimlar bilan quollantirish.

Abdulla Avloniy bolaning badantarbiyasi, salomatligi masalasida ota-onalarga murojaat qilsa, uning fikr tarbiyasi borasida asosiy ma'suliyat muallimlar zimmasida ekanini aytib o'tadi. "Bolalarda fikrlash iste'dodini rivojlantirish, dunyoqarashini hosil qilish o'qituvchilarning mas'uliyatidagi eng muqaddas vazifalardandur... Negaki, fikrlarning quvvatli bo'lishi, kengligi, ustozlarning tarbiyasiga chambarchas bog'liqdir", - deydi alloma. O'qituvchining fikrlashi keng, dunyoqarashi yuqori bo'lmos'i kerakligi haqida so'z yuritgan. Avloniy insonga yaxshilik va ezbilik faqat ilm olish orqali singadi, degan qat'iy fikrni bildiradi. Ezgu g'oya ruhida tarbiyalangan kishidagina Vatan tuyg'usi shakllanadi, ona yurtiga muhabbat uyg'onadi, sadoqati qaror topadi. Bu insoniy fazilatlarsiz barkamol shaxsni tasavvur qilib bo'lmaydi, degan

fikrlarni ilgari suradi. Demak, Avloniyning yuqoridagi fikrlarini tahlil etadigan bo‘lsak, o‘qituvchi pedagogik jarayonda faqat ta’lim berish emas, balki tarbiya berish vazifasini ham bajaradi. Tarbiya berish chog‘ida Vatanga sadoqat, ilmga muhabbat, ezgu fikrlilik kabi tuyg‘ular tarbiyaning muhim unsurlari bo‘lishi lozim.

Kaykovusning “Qobusnoma”, A.Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Husayn Voiz Koshifiyning “Ahloqi muhsiniy” kabi asarlarida ham bola tarbiyasiga bo‘lgan e‘tibor o‘z aksini topgan. Ushbu manbalardagi tarbiyaga oid yozilmalarni o‘qib, o‘rganish orqali tarbiya jarayonida bola shaxsi bilan ishslash va tarbiyalanuvchilarda qanday sifatlarni tarkib toptirish borasida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Mutafakkir, qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino tarbiya beruvchilarga qarata “Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga, avvalo, o‘zing amal qil”, - deydi¹. Shuningdek, ta’lim-tarbiya berish o‘qituvchining mas’uliyatli burchi ekanligini ta’kidlar ekan, insonning kamolga yetishida uning ahloqiy kamoloti muhim ahamiyat kasb etishini qo‘sishimcha qiladi. Xulosa qilishimiz mumkinki, bolaga tarbiya berishdan oldin pedagoglarning o‘zi yuksak ahloqiy sifatlar bilan ziynatlangan bo‘lishligi lozim. Shuningdek, “Kishi qanoat, mardlik, donolik ila haqiqiy adolatga noil bo‘ladi, yomon illatlardan qalbini asrab, yaxshilikni quvvatlaydi, chinakam ruhiy zavq tuyadi”, - deydi olim. Insondagi ijobiy, ahloqiy hislatlarni sanab o‘tib, bunga sahiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo‘tadillik, aqlilik, ehtiyyotkorlik, qat’iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Qadimgi yunon faylasufi Arastuning aytishicha, tarbiyachi o‘zi tarbiya ko‘rgan, insoniy fazilatlarni egallagan bo‘lishi darkor. Shuningdek Arastu tarbiyachi pedagogda bo‘lishi lozim bo‘lgan sifatlar haqida so‘z yuritar ekan, “Shuni bilingki, ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi odam o‘zi tarbiya ko‘rmagan bo‘lsa, boshqalarni tarbiya qilolmaydi, xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar, sen o‘quvchingni tarbiya qilmoqchi bo‘lsang, avval o‘z ruhingni tarbiyalashdan boshla. Mobodo o‘zgalar aybini ixtiyor etmoq istasang, bundan oldin o‘z nafsingni nuqson va illatlardan tozalashing zarur. Ammo ko‘zi ojiz kishi qanday qilib ko‘rga yo‘l ko‘rsata oladi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro‘ va qadr-qimmat ato qila oladimi?”- deya fikr bildiradi. Shundan ham bilishimiz mumkin, salbiy harakterga ega ahloqiy sifatlar tarbiyachilarni o‘z kasbida faoliyat ko‘rsatishi uchun to‘sinqlik qialdigan omillardan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan allomalarning fikrlariga, shuningdek tadqiqot davomida o‘rganilgan manbaalarga tayangan holda, o‘qituvchi pedagogik faoliyatni amalga oshirishga kirishishidan oldin egallashi lozim bo‘lgan sifatlarni quyida klaster usulida ifodalab o‘tamiz:

¹ A.Boydavlatov “Abu Ali ibn Sino asarlarının o‘ziga xos didaktik xususiyatlari” «Научный импульс» №18(100), часть1 Февраля, 2024



MUHOKAMA

Ta'lrim dargohi - tarbiya o'chog'idir. Tarbiyachi pedagoglar birinchi navbatda o'zi tarbiya ko'rghan bo'lishi lozim. Yuksak ahloqiy sifatlar bilan qurollangan bo'lishi talab qilinadi. O'quvchilar jamoasi bilan ishlaganda muloyimlik bilan shaxsga yaxshi ta'sir ko'rsata bilishi kerak. Muloyimlik tufayli dushman do'stga aylansa, qo'pollik do'stni g'animga aylantiradi. Abu Ali ibn Sino pedagog yomon xulqlardan saqlanmog'i kerakligini ta'kidlab, insonning kamolotga yetishida to'siqlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Johillikni - ilmgaga, nodonlikni - zehni o'tkirlilikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni esa sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi. Shuning uchun ham tarbiyachi pedagoglar bu illatlardan o'zini muhofaza etmoqligi darkor.

Yuqorida e'tirof etganimiz, pedagog shaxsiyatida bo'lishi lozim bo'lgan sifatlarni birma-bir tahlil etadigan bo'lsak, har biri alohida o'ringa ega.

- Yuksak axloqli bo'lishi - tarbiyachi faqat so'zi bilan emas, o'z xatti-harakatlari, odobi, xulq-atvori bilan ham pedagogik ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun, pedagoglar birinchi navbatda o'zida axloqiy fazilatlarni mujassam etmog'i darkor.

- Ezgu g'oyali bo'lish - muallimlar insonni ulug'laydigan, uning kuch-qudrati va salohiyatini oshirib xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlarni qilishga safarbar etadigan, o'zida taraqqiyot, ma'rifat, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik, poklik kabi ezgu his-tuyg'ularini mujassam etadigan g'oyalar bilan bezangan bo'lishi va shu asosda bolalarni ma'naviy ozuqlantirishi maqsadga muvofiqdir.

- Mas'uliyatli bo'lish - qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar muvafaqqiyatga tomon intilish uchun mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi. Mas'uliyat pedagoglar kasbiy kamolotining asosini tashkil qiladi.

- Dunyoqarashi keng bo'lishi - pedagog nafaqat o'z fanlarida bilim berishi, balki o'quvchilarning hayotga tayyorlashi, ularni mustaqil fikrlashni o'rgatish va jamiyatda

o‘z o‘rnini topish uchun ham mas’uldirlar. O‘quvchilarning o‘z ustida ishlashiga ilhom berishi, dunyoni chuqurroq anglashga rag‘batlantirish, zamonaviy pedagogik usullari va texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy qilishga qodir bo‘lishi, har xil fikr va qarashlari qabul qilib, o‘quvchilarga ham bag‘rikenglikni o‘rgatish. Kompleks muammolarni tushunib, ularni samarali tarzda hal qilish uchun to‘g‘ri qaror qabul qiladi olishi muhimdir.

- Adolatli bo‘lishi - o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari orasidagi eng muhimlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilar orasidagi ishonch muhitini yaratish, ularning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish va adolatli rag‘batlantirish, ijtimoiy mavqeyi va kelib chiqishidan qat’iy nazar hammani teng ko‘rishi muhim ahamiyatga ega. Halollik, qarorlarni shaffoflik bilan qabul qilishi va odil inson sifatida o‘rnak bo‘lishi, sinfda sog‘lom raqobat va hurmat muhitini yarata olishi kerak.

- Rostgo‘y va to‘g‘riso‘z bo‘lishi - har bir o‘quvchilarga munosib yondashib haqiqatni qadrlashga, hayotida rostgo‘y va halol bo‘lishga intilishini, noto‘g‘ri yo‘ldan hamisha qochishi muhimligini singdirish muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun birinchi navbatda o‘zi shu sifatlarga ega bo‘lishi darkor.

- Kamtar bo‘lishi - o‘zini boshqalardan ustun qo‘ymaslik, o‘quvchilarning qobiliyatlarini va intilishlarini qadrlab, ularni rag‘batlantira olish, har bir o‘quvchi va ularning ota-onalari bilan teng darajadagi munosabat o‘rnatishi lozim. Tanqidni to‘g‘ri qabul qilib o‘z ustida ishlashi, ko‘makka tayyor, o‘z bilimlarini boshqalar bilan o‘rtoqlashishi va yordam berishga doimo tayyor bo‘la olishidir.

XULOSA

Pedagog jismonan sog'lom, qalban pok va axloqan yetuk bo‘lsagina har tomonlama yetuk shaxsni tarbiya qiladi oladi. Pedagog o‘quvchilarga nafaqat bilimlarini berishi, balki ularda ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, shaxsiy fazilatlari va o‘zini tuta bilishi bilan ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olishi lozim. Bilimli, tarbiyali, yangiliklarga intiluvchan va mas’uliyatli, o‘z-o‘zini nazorat qilgan pedagog o‘quvchilarni hamisha ilhomlantira oladi va rivojlanishiga ta’sir eta oladi. Allomalarimizning fikrlaridan shunday xulosa qilamizki, tarbiyachi, avvalo, o‘zi tarbiyalanmog‘i muhim, shundagina yosh avlodga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata oladi va barkamol shaxsni tarbiyalaydi. Dunyoqarashi keng, fikrashi yuqori muallim muloyimlik, shirinso‘zlik va adolatliligi bilan o‘z jamoasida hurmatga erishadi va barchaga birdek o‘rnak bo‘ladi. Zero, tarbiya - kishining bebafo xazinasidir. Bu borada ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan foydalanmog‘imiz ayni muddaodir. Shu nuqtayi nazardan taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zлari har qaysi davrda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi va har birimiz uchun dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boydavlatov A. Abu Ali ibn Sino asarlarining o‘ziga xos didaktik xususiyatlari (The unique didactic features of Abu Ali ibn Sina's works). - Scientific impulse, 2024. 2(18), 194-198.
2. Jalilova X. “Ta’lim-tarbiya haqida sharq allomalari fikrlari va ularning bugungi kundagi dolzarbliji” (Thoughts of Eastern scholars about education and their relevance today). - “Academic Research in Educational Sciences” ISSN: 2181-1385, September, 2023
3. Abdullayeva A. “Sharq mutafakkirlari ishlarida milliy tarbiya masalasi” (The issue of national education in the works of Eastern thinkers). - “Academic Research In Modern Science” International scientific-online conference
4. Boydavlatov A. (2023). Abu ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari yordamida komil inson shaxsini shakllantirish (forming a perfect human personality with the pedagogical views of Abu Ali ibn Sina) Ta’lim va taraqqiyot, 1(1), 288-293.
5. Qayumov B. The correlation relationship of the development of creativity in adolescents with achievement motivation. Next Scientists Conferences, 1(01), 24-27. Retrieved from <https://nextscientists.com/index.php/science-conf/article/view/261>
6. Boydavlatov A. XXI asr ta’lim muhitida kelajak o‘qituvchisi portreti”. - Modern education and development, 2024, 4(13), 145-150.
7. Muhammadjon o‘g‘li, S. A. (2024). Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash pedagogik muammo sıfatida: Siddiqov Azamat Muhammadjon o‘g‘li. Лучшие интеллектуальные исследования, 22(5), 48-54
8. qizi Rustamova, G. Z. X. (2024). Boshlangich sinf o ‘quvchilarining mакtabga intellektual tayyorgarlik muammosi. Science and Education, 5(5), 331-335.
9. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.
10. qizi Kamolova, A. O. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.
11. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O’smirlar o’rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.
12. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.
13. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o’rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. Science and Education, 5(2), 513-519.
14. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. Экономика и социум, (3-2), 12-14.

15. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.
16. Azimova, O. A. Q. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarida kasbiy mahorati. *Science and Education*, 4(6), 718-722.
17. Kamolova, A. (2022). The Scientific and Theoretical Foundations of Studying the Sources of Popular Pedagogy in Educating the Younger Generation. *Science and Education" Scientific Journal/Impact Factor*, 3, 590-592.
18. qizi Rustamova, G. Z. X. (2024). Boshlangich sinf o'quvchilarining maktabga intellektual tayyorgarlik muammosi. *Science and Education*, 5(5), 331-335.
19. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
20. qizi Kamolova, A. O. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
21. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
22. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
23. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. *Science and Education*, 5(2), 513-519.
24. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. *Экономика и социум*, (3-2), 12-14.
25. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.
26. Azimova, O. A. Q. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarida kasbiy mahorati. *Science and Education*, 4(6), 718-722.
27. Kamolova, A. (2022). The Scientific and Theoretical Foundations of Studying the Sources of Popular Pedagogy in Educating the Younger Generation. *Science and Education" Scientific Journal/Impact Factor*, 3, 590-592.